



## ONA TILI TA'LIMIDA INNAVATSION YONDASHUVLAR

*Ibodullayeva Sevara*

*CHDPU “Boshlang’ich ta’lim” fakulteti “Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o’qituvchisi*

*Nuraddinova Kurban Sultan Ernazar qizi*

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*Boshlang’ich ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida ona tili fanini innavatsion texnologiyalardan foydalangan holda o’qitish o’quvchi dunyoqarashining shakllanishi, og’zaki nutqning rivojlanishi va ravon bo’lishida alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida so’z boradi. Shuningdek, darsda turli o’yin va og’zaki so’rovlardan foydalanish, rasmlarga qarab gap tuzish haqida ham so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Innnavatsiya, o’yin, muammoli vaziyat, og’zaki nutq, ta’lim, multimedia vositalari, metod, mustaqil ish, integratsiya, taqdimot, DTS, nutq, interfaol usul, interaktiv o’yin.

Bugungi kunda ta’lim sohasiga har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida ta’limning birlamchi ishtirokchilari bo‘lgan o’qituvchilarga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o’qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo‘lmog‘i shart va zarurdir. O’qituvchi o’quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to‘g‘risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o’rni juda muhimdir. Ona tili va boshqa darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o’quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o‘zlashtirishida yetakchi samara beradi.



Ona tili ta'limida innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil o'rganish va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Quyida ona tili ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy innovatsion yondashuvlar bayon etiladi:

### 1. Interfaol usullarni qo'llash

Interfaol dars usullari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularni birgalikda ishlashga rag'batlantiradi. Misollar:

"Klaster" metodi – muayyan mavzuni grafik shaklda tahlil qilish;

"Baliq skeleti" usuli – muammo va uning sabablarini aniqlash;

### 2. AKTdan foydalanish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi:

Elektron darsliklar va platformalar (masalan, Google Classroom, Quizizz);

Videodarslar va interaktiv taqdimotlar;

Lug'atlar va ona tiliga oid dasturlarni qo'llash.

Ona tilining muhim aspektlarini tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar.

Bu innovatsion yondashuvlar o'qituvchilarning ijodkorligini talab qiladi va o'quvchilarni mustaqil o'rganishga yo'naltiradi. Shu yondashuvlarni amalda qo'llash orqali ona tili ta'limi samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Bundan tashqari boshqa metodlar, o'yinlar va ko'rgazmali rasmlar orqali o'quvchilarga dars jarayoni olib borilsa, o'quvchilarning tushunishi osonlashadi va darsga bo'lgan qiziqishi ortadi. Misol uchun „Tushunchalar asosida matn tuzish“ metodi.

**"Tushunchalar asosida matn tuzish"** metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va tomonlarni aniqlash, asosiy ikkinchi darajali belgilami ajratish, sabab-oqibat aloqalarni ochib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma'lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo boladi.

Mazkur metodni qo'llash texnologiyasi:



Masalan: „Ona tiliga oid atamalar” mavzusi bo'yicha : Aniqlovchi, gap, sifat, nutq, tovush, ega, kesim.

Bu metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilarning qay darajada atamalarni eslab qolishi va gap tuzayotganda so'zlarni o'z o'rnida qo'llay bilishlarini kuzatish mumkin. Darslarni innovation texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovation faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi.

Bugungi kunda barcha fanlar qatori ona tili darslarini ham hozirgi zamon talablariga muvofiqlashtirish, zamonaviy ta'lim metodlari asosida o'qitish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili » darsining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Biroq ta'lim mazmuni, usuli va vositalarini "o'quvchilarning ijodiy, mantiqiy, obrazli va assotsiativ fikrlash, tafakkur qilish, tafakkur mahsulini og'zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon ifodash kompetensiyalarini rivojlantirish" bosh maqsadidan kelib chiqib, izchil va sistemali, aniq amaliy natijalarni olish nuqtai nazaridan tashkil etib ta'lim samaradorligini ta'minlash dolzARB muammoligicha qolmoqda.



Hozirgi vaqtda ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darjasiga o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin. Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishi, o'z fikrini erkin va ravon bayon eta olishi, so'zlarni to'g'ri va o'z o'mida qo'llash ko'nikma va malakalari rivojlantirishda asosiy fan hisoblanadi. shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichidayoq ona tilini o'qitishga alohida e'tibor berish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили грамматикаси, I том, Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 608 б.
2. Ўзбек тили стилистикаси. – Ташкент, 1983. – 146 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 1-жилд. – 679 б.



4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 2-жилд. – 671 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 3-жилд. – 687 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 4-жилд. – 606.6
6. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Карши: Насаф, 2005.–172 б.
7. Менглиев Б., Ҳамроева Ш. Тилшуносликнинг амалий масалалари. – Германия: Globe, 2020. 97 б
8. Ibodullayeva, S. M. (2024). Kecha va kunduz romanida begonalik tushunchasini ifodalovchi undalmalar. Mugallim, 1(4), 75-80.
9. Ibodullayeva, S. (2022). Methodological and semantic description of versions in cholpon's novel "night and day". *Science and Innovation*, 1(8), 983-989.
10. Ibodullayeva, S. (2022). Cho 'lponning "kecha va kunduz" romaniga oid tadqiqotlar tavsifi. *Академические исследования в современной науке*, 1(18), 263-266.
11. Ibodullayeva, S. M. (2022). Kecha va kunduz romanining badiiy xususiyatlari. Tilshunoslikning dolzarb masalalari, 1(1), 217-221.
12. Ibodullayeva, S. (2022). Cho'lponning "kecha va kunduz" romanidagi undalmalarning uslubiy-semantik tavsifi. *Science and innovation*, 1(B8), 983-989.